



UDK: 821.512.133-1

Obidaxon FAYZULLAYEVA,
Guliston davlat universiteti professori v.b., filologiya fanlari doktori
E-mail: obida_fayzullayeva@mail.ru

P.f.d. prof. Q.Yo'ldoshev taqrizi asosida

TURKUM SHE'RLAR KOMPOZITSIYASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada she'riy sikllarning kompozitsion qurilishi masalasi o'zbek she'riyatidagi ayrim she'riy turkumlar misolida o'rganilgan bo'lib, bunda sonet turkumlariga alohida e'tibor qaratilgan. Sikllarning badiiy xususiyatlari sanalgan ularning strukturasi, sikl tarkibida qo'llanilgan komponentlarning joylashuvi, asarning badiiy-estetik xususiyatlariga, g'oyasi hamda ijodkor badiiy niyatiga qay darajada xizmat qilganligi xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Lirik kompozitsiya, kompozitsion yaxlitlik, kechinma tabiati, lirik qahramon, umumiy joy va makon, badiiy komponentlar tizimi, badiiy g'oya va h.k.

COMPOSITION OF POEMS CYCLE

Annotation

This article studies the issue of the compositional construction of poetic cycles using the example of some poetic cycles in Uzbek poetry, with special attention paid to sonnet cycles. The artistic features of the cycles are their structure, the location of the components used in the cycle, the artistic and aesthetic characteristics of the work, the idea and the extent to which they served the artistic intention of the creator.

Key words: Lyrical composition, compositional integrity, nature of experience, lyrical hero, general location and space, system of artistic components, artistic idea, etc.

КОМПОЗИЦИОННАЯ СТРУКТУРА ЦИКЛОВ

Аннотация

В данной статье вопрос композиционного построения поэтических циклов рассматривается на примере некоторых поэтических циклов узбекской поэзии, в которых особое внимание уделяется сонетным циклам. Перечисляются художественные особенности циклов, обсуждается их структура, расположение использованных в цикле компонентов, художественно-эстетические свойства произведения, идея и художественный замысел создателя.

Ключевые слова: Лирическая композиция, композиционная целостность, характер переживания, лирический герой, общее место и пространство, система художественных компонентов, художественная идея и др.

Kirish. "Lirik asarda kompozitsiya ijodkor diqqat markazining, uning oldida turgan badiiy vazifaning aniqligi, shunga nisbatan asardagi qismlar va obrazlar joylashuvi va ijodkor tomonidan o'sha markaz va badiiy vazifaga nisbatan tasvir meyor va muvofiqligiga rioya qilishdan iborat deb qarash kerak" [3]. Ma'lumki, kompozitsiya asar strukturasi bilan bog'liq, uning komponentlariga aloqador hodisa. Kompozitsiya – asarning qurilishi, uning tarkibiy qismlarining joylashishi, voqealarni bayon qilish tartibi – asosiy badiiy vositalardan biri bo'lib, yozuvchi orqali asarda ishtirok etuvchi kishilarni xarakterlaydi, o'zini qiziqtirgan hayotiy voqealarni o'zi tushunganicha tasvirlaydi. Darhaqiqat, kompozitsiya, ijodkorning asar qismlari joylashuvidan, obrazlar talqinidan kelib chiqib, ularning muvofiqlashtirilishi o'z g'oyaviy niyatiga moslash jarayonidir.

Lirik kompozitsiya oldiga ijtimoiy ko'zlanishi, poetik g'oyaning hayotiy vaziyatga asoslanganligi, kompozitsion shaklning ichki qonuniyatlarga buysondirilganligi, lirik asarda shakl va mazmun mutanosibligi, lirik tuyg'uning ifoda shakli uyg'unligi kabi talablar qo'yiladi va sanalmish talablar ijrosi lirik asar badiiyati yuksakligini ta'minlaydigan muhim omillardan sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek adabiyotshunosligida turkumlilik xalq og'zaki ijodidanoq boshlanganligi haqidagi fikrlar professor va yirik folklorshunos olim To'ra Mirzayev (Mirzayev T. Silsila dostonlar. – T., Sharq. 2006) tadqiqotlarida, o'zbek xalq eposlarida ularning spesifik xususiyatlariga ko'ra tadrijiylik va izchillik kabi jihatlar mavjud ekanligi xususida fikrlar yana bir folklorshunos olim Salimaxon Mirzayeva (Mirzayeva S. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. – T., Fan. 2004) tadqiqotida, liro-epik janr namunalari bo'lgan she'riy dostonlarda ham sikl asarlar tajribasini kuzatish mumkinligi haqidagi mulohazalar adabiyotshunos olim, professor

No'mon Rahimjonov (Rahimjonov N. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar. – T., Tamaddun, 2008) tadqiqotlarida, mumtoz ijodkorlardan bo'lgan Usmonxo'ja Zoriy ijodida she'riy sikllar mavjudligi haqidagi ma'lumotlar Dildoraxon Abdullayeva (Abdullaeva D.Z. Usmonxo'ja Zoriy hayoti. – T., Yangi asr avlodi, 2005) tadqiqotlarida uchraydi. Adabiyotshunos Hamid Mirzayev (Mirzayev H. O'zbek she'riyatida sonetlar turkumi // O'zbek tili va adabiyoti. 2007. 1-son) o'zbek adabiyotida sonetlar sikli haqida fikr yuritgan bo'lsa, S.Rahmonova (Rahmonova S. O'zbek sonetlari: poetik struktura va badiiy obraz. Filol. fanlari nomzodi ... diss... avtoref. – T.: 2010) sonetlar siklida poetik struktura va badiiy konsepsiya masalasini tadqiq etgan. Aldasheva Shirin (Aldasheva Sh.J. 70-80-yillar o'zbek lirikasida to'rtlik, sakkizlik va she'riy turkum tabiati. Filol. fanlari nomzodi ... diss... avtoref. – T.: 2019) esa 70-80-yillar o'zbek lirikasidagi she'riy turkumlar tabiatini qisman o'rgangan. Yuqorida aytilganlardan ko'rinib turibdiki, she'riy turkum va uning kompozitsion qurilishini o'rganishning dolzarbligi XX asrning ikkinchi yarmi adabiyotini chuqur va har tomonlama o'rganish, ulardan nazariy konsepsiyani rivojlantirish uchun zarurat edi deyish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek she'riy turkumlari o'z kompozitsion strukturasi ega ekanligi, turkumlar strukturasi, sikl tarkibida qo'llanilgan komponentlarning joylashuvi, asarning badiiy-estetik xususiyatlariga, g'oyasi hamda ijodkor badiiy niyatiga qay darajada xizmat qilganligi xususidagi fikrlar maqolada aks ettirilgan.

She'riy turkumlar uchun tanlangan janr va shakllar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, asosan, o'zbek ijodkorlari, xususan, Azim Suyun va O'roz Haydar asarlari misolida tadqiq etilgan, chunki ular bu davr adabiyotida lirik sikllarning o'ziga xos namunalari yaratishgan. Turkumlar tarkibidagi barcha she'rlarda poetik obrazlar umumiyliigi, anafirik va ambey

kompozitsiya, kompozitsion yechim, kompozitsion xalqa kabi kompozitsion usullardan foydalanilganligiga ham e'tibor qaratilgan. Sonet turkumlaridagi she'rlar o'trasidagi bog'liqlik "tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez" tarzida shakllantirilganligi, ular ham umumiy obraz, kechinma tadriji nuqtayi nazaridan birlashtirilganligiga ham e'tibor qaratilgan. Maqolada qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, genetik, struktural tahlil metodlardan unumli foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. She'riy turkumlarni shakllantiruvchi vositalar tarkibida umumiy lirik qahramon, umumiy kechinma, umumiy joy yoki makon tasvirlanayotgan vaqtdagi davomiylik, shu davr kishilari obrazlari yoki shu muhit tushunchalarining majoziy tasvirlari kabilar mavjud bo'ladi.

Shu ma'noda shoir Azim Suyun qalamiga mansub "O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" nomli turkum tadqiq etilganda, uning tarkibidagi o'nta she'rning barchasida lirik qahramon oshiq qalb sohibi bo'lgan yigit, tasvirlanayotgan tushuncha – "muhabbat", asosiy poetik obraz esa ma'shuqa ekanligi ayonlashadi. Shoir turkum she'rlariga alohida sarlavhalar qo'ymagan, balki ularni o'ngacha bo'lgan raqamlar bilan belgilagan. Turkumdagi birinchi she'r an'anaviy to'rt qatorlik besh banddan iborat. Bu she'rda shoir anaforik kompozitsiya turidan foydalangan bo'lib, undagi "Seni tanidimu muhabbat" misrasi shu zaylda she'r bo'ylab har ikki misraning boshida qaytadan takrorlanib kelgan.

Seni tanidimu muhabbat,
Tanidim gullarning ismini.
Seni tanidimu muhabbat,
Yashashga tutindim sig'inib.

Turkumdagi ikkinchi she'r murakkab vazn shaklida yaratilgan bo'lib, uning bandlaridagi misralar miqdori ikki, uch, to'rttani ham tashkil etgan.

Shamollar qo'zg'oldi, turdi dovullar,
Olamni qop-qora bulutlar bosdi,
Qorong'ulik.
Shamollar surildi, tindi dovullar,
Ko'k yuzi oqarib, asta yorishdi. Oqlik, oqlik [1].

Ushbu she'rda lirik qahramonning hayoti "shamollar", "dovullar", "qora bulutlar" istioralari bilan ta'riflanayotgan salbiy holatidan "oqlik" istiorasi bilan atalayotgan ijobiy tarafiga o'zgarishiga muhabbat tuyg'usi sababchi ekani tasvirlangan.

Turkumdagi uchinchi she'r besh qatorlik besh banddan tashkil topgan bo'lib, mazkur she'r yuqoridagi ikki she'rning davomi sifatida lirik qahramon qalbiga kirib kelgan muhabbat tarannumiga bag'ishlangan:

Oh, na faqat kunlar go'zal,
Tonglar go'zal, tunlar go'zal,
Saslar go'zal, unlar go'zal,
G'amlar go'zal, munglar go'zal,
Ko'ksimda qiqirlar sevgi [1].

Aynan mana shu band she'rning so'ngida ham yana bir bor takrorlanib, kompozitsion yoki she'riy halqani tashkil etgan. Bundan tashqari, she'rda "Ko'ksimda qiqirlar sevgi" misrasi har bir bandning so'ngida takrorlanishi orqali kompozitsion yechim ham yuzaga kelgan. Ushbu takroriy misra va bandlar shoir mahorati tufayli badiiy niyatning kuchliroq ifodalanishi va mazmundagi ta'sir kuchi ortishiga xizmat qilgan.

Turkumdagi to'rtinchi she'r to'rt qatorlik uchta banddan tashkil topgan. Ushbu she'rda shoir kompozitsion xalqa usulini qo'llash orqali undagi ma'no nozikliklariga alohida e'tibor qaratishga muvaffaq bo'lgan. YA'ni she'rdagi "Qaydan seni uchratdim, ohu" misrasi har uchala bandning ham bosh qismida takror qo'llangan:

Qaydan seni uchratdim, ohu,
Umr – o'lja, bu dunyo – sayyod,
Yuragingda jodugar uyqu,
Ko'zlaringda yonar muhabbat [1].
She'rdagi "ohu" istiorasi, "umr – o'lja, "dunyo – sayyod", "jodugar uyqu" epitetlari she'r badiiyatini ta'minlash uchun o'rinni qo'llanilgan.

Ko'rinadiki, bu she'r ham muhabbat tarannumiga bag'ishlangan bo'lib, lirik qahramon yashayotgan talotum dunyoda bunday pokiza tuyg'uni asrashga ehtiyoj borligi tasvirlanadi. Shu sababli shoir uni tog'larga olib borib yashirib

qo'ymoqchi. Toki unga faqat chin oshiqlargina mashaqqatlar bilan erishsinlar.

Azim Suyunning "Kuz" deb nomlangan turkumi ham o'ziga xos kompozitsion qurilishga ega bo'lib, u sakkiz qatorlik o'n sakkiz banddan tashkil topgan. Turkumning lirik qahramoni kuz xayollari bilan band bo'lgan shoirning kuzga mehri alohida ekani bandlar davomida ayonlashadi. Ushbu turkumda ham shoir she'riy xalqa usulidan foydalangan:

El-yurt ko'chib endi tog' etagiga.
Yozgi chorbog'larda namxushdir xazon.
Kech qolgan cho'pon ham haydar suruvni,
Serka yo'l boshlaydi chalib qo'ng'iroq,
Jaranglab turar u uzoq va uzoq,
Ufqlarga singib ketar oxiri ... [1]

Birinchi banddagi sakkiz qatorni she'r so'ngida o'zgartirmasdan to'liq takrorlash orqali kompozitsion yoki she'riy halqa usuli qo'llangan.

Umuman olganda, Azim Suyun ijodidagi "O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" va "Kuz" she'riy turkumlarining tarkibidagi she'rlarga alohida sarlavhalar qo'yilmasa-da, ularda lirik qahramon kechinmasining tadriji to'laqonli aks ettirilganligi ko'rinadi.

"O'ldirsang ham o'zing o'ldir, muhabbat!" turkumidagi asosiy poetik obraz "muhabbat" tushunchasi bo'lgan bo'lsa, "Kuz" turkumida o'z nomidan ham ma'lum bo'lib turgan "kuz fasli" asosiy poetik obraz vazifasini o'taganligidan mazkur turkumlar tarkibidagi barcha she'rlarda poetik obrazlar umumiyli ayonlashadi. Azim Suyun turkumlarda anaforik kompozitsiya, ambey kompozitsiya, kompozitsion yechim, kompozitsion xalqa kabilar ko'plab kompozitsion usullardan foydalangan.

Taniqli shoir O'roz Haydar ijodida "Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim" deb boshlanuvchi sonetlar turkumi mavjud bo'lib, uning tarkibida o'n olitta sonet mavjud. Ularning barchasi muhabbat iztiroblariga bag'ishlangan. Turkumning lirik qahramoni ham sevgi iztiroblarida ozurda bo'lgan qalb sohibidir.

Turkum tarkibidagi sonetlar bir xil shaklda yaratilgan bo'lib, bu shakl "shekspirona sonet" nomi bilan mashhur bo'lgan uchta katren va bitta distixdan tashkil topgan shakldir. Sonetlar uchun shoir bitta umumiy epigraf tanlagan bo'lib, ushbu epigraf Pushkinning "Erkalar va charchatar ovozi sen" misrasidir. YA'ni she'rlarda ma'shuqani takroriy ishq izhorlari zada qilishi tasviriga ishora qilinmoqda. Shunga ko'ra ham turkumdagi birinchi sonetning birinchi katreni:

Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim,
Kuydirilgan so'zlar jarangi tinar.
Qarg'aysan, go'rimga qadab yetmish chim,
Hayot shamim abad nazdingda so'nar [7].

Ushbu sonetning birinchi katreni boshlanib, ma'shuqaning oshiq maktubini kuydirishi holati aks ettirilgan. Keyingi sonetlarda kechinma tasviri voqealar rivoji kabi tadrijiy holatda tasvirlanadi va barchasida bu fojeiy sevgi oqibatlariga ko'rsatib beriladi. Birida "Bo'm-bo'sh chiziqlarda titraydi yurak" deyish orqali shoir o'z qalbining bo'shab qolganligini bildirsa, keyingi sonet qulfida "Oftob – zulmat, deya chinqirar ko'zim" satrlari orqali oshiq yigitning ko'ziga bu dunyo qorong'u bo'lib borayotganligi ta'kidlanadi.

Navbatdagi sonet "Buncha berahmsan, gunohkor sevgim" misrasi orqali lirik qahramon o'zining abgor holatiga muhabbatni ayblayotgan bo'lsa, keyingi sonetda o'lim oldidan ko'zini ochgan Oshiqqa rahm qilgan Muhabbat o'z qahriyu makrini unutib, uning boshini silashidan umidvor bo'lgan lirik qahramon o'tinchlari aks ettirilgan.

Navbatdagi sonet obro'si yer bilan yakson bo'lgan oshiq uchun dunyo dahshatli manzarada ko'rinish berishidan boshlangan:

Onasin xo'rlagan farzandday xunxor,
Qattol oy boqadi ko'kdan qonsirab.
Do'zax childirmasin chaladi tunzor,
Yulduzlar sham izlab, to'zg'ir sonsirab [7].

Oyga berilayotgan xunxor, qattol epitetlari va uning qonsirayotgani tasviri oshiq iztiroblari tufayli yuzaga kelayotgan tasavvur bo'lib, tunning "do'zax childirmasini chalishi" va

yulduzlarning to'zg'igan holatda sham izlab yurishlari ham o'sha tasavvurning hosilasidir.

Oshiqning kimga yukinib, kimga o'tinishni bilmayotgan holati bir sonetdagi "Meni hech kim kutmas, to'rt bo'lib ko'zi, Kutmaganim kabi hech kimni o'zim" kabi tushkun holatining ifodasi bo'lgan. O'n beshinchi sonetda ma'shuqaga o'tingan oshiqning qalb nolari aks etgan:

Meni biroz aya, sevinay, ey, yor,
Sevinch nimaligin angelayin bir bor [7].

So'nggi oltinchi sonetda ma'shuqadan oshiqqa nisbatan mehr ko'rsatilmagach, dunyoni yoqimsiz turg'un holatda ko'rayotgan lirik qahramon tasavvuri bayon qilingan:

Turg'unlik – olovda muzlayotgan suv,
Qahraton ohida yonayotgan jon.
Oyning shu'lasidan kuyayotgan huv,
Etagin qoqayotgan kengliklar – giryon [7].

She'rdagi "olovda muzlash", "qahratonda yonish" oksimoronlari lirik qahramon holatini bo'rttirish uchun qo'llanilgan. Oyning shu'lasini ham hech qachon kengliklarni jizg'anak qilmasligi ayon. Shunday bo'lishiga qaramay, oshiq ko'ngil iztiroblari tufayli yuzaga kelgan vaznsizlik holati dunyodagi mavjud tartibning buzib ko'rinishiga sabab bo'lmoqda. Sonet qulfidagi:

Chaqmoq chaqqanda ham yashin beayov,
Gugurt chaqmog'icha purkolmas olov,
tarzidagi xulosa fikr oshiq qalbidagi iztirob olovining o'ti

bilan hech qanday kuch tenglasha olmasligi ma'nosini bermoqda.

Yana bir ma'nosiga ko'ra esa muhabbat tufayli qalbdan paydo bo'ladigan yolg'in butun olamni ostin-ustun qilganidek, bir dona gugurt chaqmog'idan chiqqan olov butun yer yuzini yoqib kul qilishga qodir ekanligini uqtirmoqda shoir.

O'roz Haydar qalamiga mansub "Mana, ishq maktubim yoqmoqdasan jim" turkumi o'n olti sonetdan iborat yirik majmua bo'lib, undagi yagona ishq mavzusi va hijronzada oshiq qalbning iztiroblarini aks ettirishday yagona mazmun barcha sonetlarning umumiy mohiyatini tashkil etgan. Yagona lirik qahramon kechinmalari tasviri, muhabbat va ma'shuqaning poetik obrazlar sifatidagi ishtiroki ham she'rlardagi umumiylik jihatlari kuchaytirgan. Turkumni shakllantiruvchi komponentlar shaklan va mazmunan uyg'un bo'lgan unsurlardan tuziladi.

Xulosa va takliflar. Xullas, turkumlarning shakliga xos komponentlar sirasiga ulardagi umumiy sarlavha, epigraf, qismlarning raqamlanishi yoki nomlanishi kompozitsion vosita yoki usullarning mavjudligi kabilar kirs, mazmunga xos unsurlar shoirning badiiy niyati asosida shakllantirilgan g'oya, mazmun, lirik qahramon kechinmasi tasviridagi izchillik, poetik obraz ishtirokidagi ketma-ketlik va davomiylikdan iborat bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek sonet turkumlaridagi she'rlar o'trasidagi bog'liqlik "tezis – antitezis – kechinma rivoji – sintez" tarzida shakllantirilgan bo'lib, o'z ichiga uchtdan o'ntagacha, ba'zi sonetlarda 28, 44 va 100 tagacha bo'lgan sonetni oladi. Ular umumiy obraz, kechinma tadriji nuqtai nazaridan birlashtiriladi. Umuman, turkumlarni birlashtiruvchi komponentlar mazmun va shakl dialektikasi asosida shakllantiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Azim Suyun. Kuyganim – suyganim. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. – B. 122.
2. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-493079-1.html?page=Abdullayeva+Dildoraxon+Zumratbekovna>. Usmonxo'ja Zoriy hayoti.
3. Kamolov J. Lirik she'riyatda kompozitsiya. Fil. fan. nomz... diss. – T., 1970. –28 b.
4. Mirzayev H. O'zbek she'riyatida sonetlar sikli.//O'zbek tili va adabiyoti. 2007. 1-son.
5. Mirzayev T. Silsila dostonlar. ("O'zbek xalq dostonlari" kitobiga so'zboshi). – T.: Sharq. 2006.
6. Mirzayeva Salimaxon. O'zbek xalq romanik dostonlari poetikasi. – T.: Fan. 2004. – 246 b.
7. O'roz Haydar. Kechikkan fasl. Saylanma. – T.: Sharq, 2010. – B. 137.
8. Rahmonova S.R. O'zbek sonetlari: poetik struktura va badiiy obraz. Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoreferati. – T., 2010.
9. To'ychiyev U. Adabiy turlar va janrlar. 2-tom. – T.: Fan, 1992. – 250 b.
10. www.ijod.uz/?p=13981/page1. Rahimjonov N. Badiiy tafakkurdagi evrilishlar.